

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.09.2024.I.72.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

KURBANOVA MOHINUR XABIB QIZI

HUDUDLARDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING
TASHKILY-IQTISODIY JIHLARI
(BUXORO VILOYATI MISOLIDA)

08.00.17–Turizm va mehmonxona faoliyati

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) in economic
sciences**

Kurbanova Mohinur Xabib qizi

Hududlarda ziyorat turizmini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlari (Buxoro viloyati misolida) 3

Курбанова Мохинур Хабиб кизи

Организационно-экономические аспекты развития зиярат туризма в регионах (на примере Бухарской области) 29

Kurbanova Mohinur Xabib kizi

Organizational and economic aspects of ziyorat tourism development in the regions (The case of Bukhara region) 57

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 61

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.09.2024.I.72.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

KURBANOVA MOHINUR XABIB QIZI

HUDUDLARDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING
TASHKILY-IQTISODIY JIHLARI
(BUXORO VILOYATI MISOLIDA)

08.00.17–Turizm va mehmonxona faoliyati

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Iqt4293 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Buxoro davlat universiteti veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ibragimov Nutfillo Salimovich
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Qodirov Azizjon Anvarovich
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Termiz davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi iqtisodiyot fanlari bo'yicha ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.09.2024.I.72.05 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "____" _____ soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 200117, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel: (998 65) 221-26-92; (998 65) 221-27-07, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 200117, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel: (998 65) 221-25-87, e-mail: buxdu_arm@umail.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "____" _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil "____" _____ dagi ____-raqamli reyestr bayonnomasi)

O.X.Xamidov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

D.Sh.Yavmutov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

B.N.Navruz-Zoda

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Jahonda ziyorat turizmi sohasi ko‘plab mamlakatlar va hududlar uchun iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy jihatdan muhim yo‘nalish bo‘lib kelmoqda. 2023-yilda dunyoda musulmon sayohatchilar soni 145 millionga yetgan, 2024-yildan 2028-yilgacha bo‘lgan prognoz davrida musulmonlarning xalqaro tashriflari 3-5% o‘shish ko‘rsatkichi bilan ularning soni 230 millionga yetishi, sohadan olinadigan daromad esa 225 milliard AQSH dollarini tashkil etishi kutilmoqda¹. Shu munosabatda hududlarda ziyorat turizmi imkoniyatlarini baholash, infratuzilmani yaxshilash, turistik marshrutlarni diversifikatsiya qilish asnosida rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda ziyoratgohlarning rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalarini aniqlash, ayniqsa, ziyorat turizmini samarali boshqarish orqali hududlar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish bo‘yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, global ziyorat turizmi infratuzilmasini yaratish, hududlarning ziyorat turizmini tashkil etishga tayyorlik darajasini oshirish, ziyorat turizm yo‘nalishlarini diversifikatsiya qilish orqali maqsadli ziyoratchilar auditoriyasini jalb qilish, hamda ziyoratgohlarda sayyohlar oqimining istiqbolli ko‘rsatkichlarini baholash, sohada to‘siq bo‘lib kelayotgan muammolarni aniqlash asosida samarali tashkiliy-iqtisodiy yechimlarni ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlarni o‘tkazishga ustuvorlik berilmoqda.

Yangi O‘zbekistonda ichki va ziyorat turizmini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘lami keskin oshdi. Ayniqsa, mamlakatimiz ziyoratgohlari bo‘ylab ziyoratchilar sonini oshirish, xorijiy va mahalliy sayyohlar uchun yangi turistik yo‘nalishlar taklif qilish, ziyorat turizm targ‘iboti bo‘yicha aniq rejalar belgilab berildi. 2023-yilda O‘zbekistonning muqaddas qadamjolariga 1,5 million ziyoratchi tashrif buyurgan bo‘lsa, “O‘zbekiston - 2030” strategiyasida “ziyosat turizmi bo‘yicha keladigan sayyohlar sonini 3 million nafarga yetkazish”² belgilangan. Mamlakatimiz hududlarida ziyorat turizmini barqaror rivojlanishini ta‘minlash, hududning musulmon ziyorat turizmi xizmatlarining joriy qilinganlik darajasini baholash, tashkiliy-iqtisodiy muammolarini aniqlashga qaratilgan nazariy-uslubiy va amaliy takliflar bo‘yicha tadqiqotlar o‘zining dolzarbligi bilan ajralib turadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli ““O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2021-yil 9-fevraldagi PF-6165-sonli “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlarida, 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-sonli “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2023-yil 27-iyuldagi PQ-238-sonli “Turizm yo‘nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va

¹ Mastercard-CrescentRating. Global Muslim Travel Index. May. 2024

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi ““O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli farmoni

sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 29-iyuldagi PQ-338-sonli “Turkiy davlatlar bilan turizm sohasidagi hamkorlikni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 30-apreldagi PQ-232-sonli “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2018-yil 7-fevraldagi PQ-3514-sonli “Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-fevraldagi VMQ-100-sonli “Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2018-yil 15-fevraldagi VMQ-120-sonli “Muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlar, masjidlar va qabristonlarni obodonlashtirish ishlarini samarali tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarorlarida hamda ushbu sohaga tegishli boshqa me‘yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ziyorat va turizm nazariyasi, diniy motivlar, qiziqishlar, ruhiy yoki madaniy ehtiyojlar, ziyorat turizmning iqtisodiy asoslari, hududlarda ziyorat turizmini rivojlantirish masalalari M.M.Battour, R.Eid, H.El-Gohary, J.C.Henderson, J.Jafari va N.Scott, C.S.Abbate, R.Raj, I.Egresi, D.H.Olsen, K.Griffin, K.S.Taher, S.Bhardwaj, U.S.Mujtaba, M.F.Haq, Y.Bilim kabi xorijlik olimlarning ilmiy ishlarida keng tadqiq qilingan³.

Ichki va ziyorat turizmni rivojlantirish, tashkiliy jihatlarini takomillashtirish xususida Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) olimlaridan A.Y.Aleksandrova, L.V.Baylagasov, A.V.Kuchumov, Z.P.Tinina va boshqalarning tadqiqotlarida o‘z yechimini topgan⁴.

³ Battour M. M., Ismail M. N., Battour M. Toward a halal tourism market //Tourism analysis. – 2010. – T. 15. – №. 4. – C. 461-470.; Eid R., El-Gohary H. The role of Islamic religiosity on the relationship between perceived value and tourist satisfaction //Tourism management. – 2015. – T. 46. – C. 477-488.; Eid R., El-Gohary H. Muslim tourist perceived value in the hospitality and tourism industry //Journal of Travel research. – 2015. – T. 54. – №. 6. – C. 774-787.; Henderson J. C. Religious tourism and its management: The hajj in Saudi Arabia //International Journal of Tourism Research. – 2011. – T. 13. – №. 6. – C. 541-552.; Jafari J., Scott N. Muslim world and its tourisms //Annals of Tourism Research. – 2014. – T. 44. – C. 1-19.; Abbate C. S., Di Nuovo S. Motivation and personality traits for choosing religious tourism. A research on the case of Medjugorje //Current issues in tourism. – 2013. – T. 16. – №. 5. – C. 501-506.; Raj R. Religious tourist’s motivation for visiting religious sites //International Journal of Tourism Policy. – 2012. – T. 4. – №. 2. – C. 95-105.; Egresi I., Kara F., Bayram B. Economic impact of religious tourism in Mardin, Turkey //Journal of Economics and Business Research. – 2012. – T. 18. – №. 2. – C. 7-22.; Olsen D. H. Negotiating identity at religious sites: A management perspective //Journal of Heritage Tourism. – 2012. – T. 7. – №. 4. – C. 359-366.; Raj R., Griffin K. (ed.). Religious tourism and pilgrimage management: An international perspective. – Cabi, 2015.; Taher K. S. History of Tourism in Islam //Islamic Tourism. – 2008. – T. 34. – C. 54-48.; Bhardwaj S. Non-hajj pilgrimage in Islam: A neglected dimension of religious circulation //Journal of cultural geography. – 1998. – T. 17. – №. 2. – C. 69-87.; Mujtaba U. S. Constructs of foot pilgrimage in Islam: the case of Arbaeen Ziyara //Islamic tourism: management of travel destinations. – Wallingford UK : cab International, 2019. – C. 214-227.; Haq F. Islamic spiritual tourism: An innovative marketing framework //International Journal of Social Entrepreneurship and Innovation 4. – 2013. – T. 2. – №. 5. – C. 438-447.; Bilim Y., Bıskın F., Kaynak İ. H. Marketing approaches and problems of Islamic destinations //Islamic tourism: management of travel destinations. – Wallingford UK : CAB International, 2019. – C. 38-54.

⁴ Александрова А. Ю. Халальный туризм: сущность, факторы и современные тенденции развития в мире. Halal tourism: essence, factors and modern trends in the world //Приоритетные направления и проблемы развития

Mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga doir muammo va yechimlar B.N.Navruz-Zoda, O.X.Xamidov, N.Tuxliyev, I.S.Tuxliyev, A.A.Eshtayev, N.S.Ibragimov, M.T.Alimova, G.R.Xidirova, B.Sh.Safarov, D.Sh.Yavmutov, A.J.Abdulloev, M.T.Aliyeva, A.T.Mirzayev, U.R.Matyakubov, A.A.Qodirov, S.Sh.Xalilov, S.Jo‘rayeva, E.E.Karimov, Z.B.Navruz-zoda, A.A.Xudoyarov, T.G.Ravshanov, Sh.U.Bobojonov kabi olimlar tomonidan atroflicha o‘rganilgan⁵.

Qayd etish joizki, barcha olimlar tomonidan ziyoratgohlarni rivojlantirish masalalariga, jumladan, ziyorat klasterini shakllantirish, tabarruk maskanlarning turistik xaritasini shakllantirish, ziyorat turizmi marketingiga e‘tibor qaratilgan bo‘lsada, musulmon ziyoratchilar uchun turizm infratuzilmasini yaratish masalalari

внутреннего и международного туризма в России. – 2018.; Байлагасов Л. В., Гоппа М. И. О классификации паломнического туризма //Символ науки. – 2016. – №. 10-3. – С. 192-194.; Кучумов А. В., Печерица Е. В., Хорева Л. В. Религиозный туризм в системе современных концептуальных подходов и социальных практик //Известия Санкт-Петербургского государственного экономического университета. – 2023. – №. 4 (142). – С. 156-163.; Тинина З. П. Историографический аспект паломничества, как социокультурного феномена (постановка проблемы) //Приволжский научный вестник. – 2013. – №. 8-1 (24). – С. 58-69.

⁵ Navruz-Zoda B. N. et al. Perspectives on the improvement of Uzbekistan as a destination for multi-confessional self-organised pilgrims //International Journal of Religious Tourism and Pilgrimage. – 2019. – Т. 7. – №. 4. – С. 11.; Xamidov O. X. et al. Muslim pilgrimage in Bukhara: trends and issues in development, future directions. // 14th Asia Tourism Forum 2024. Conference proceedings. - Palembang, Indonesia, 6-8 May, 2024. - Pp. 237-246.; Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Национальные модели развития туризма // –Т.: Гос. Науч. Изд-во “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2006. 386 с.; Tuxliev I.S., Qudratov G‘.H., Pardaev M.Q. Turizmni rejalashtirish //– Т. «Iqtisod-moliya».; Eshtaev A.A. Globallashuv sharoitida turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi (O‘zbekiston Respublikasi turizm tarmog‘i misolida) //Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand. 2019. -71 b.; Ibragimov N. S. Destinatsion menejment: davlat miqyosida turizmni bozor usulida boshqarish san‘ati //Destination management: The art of managing tourism in market style throughout the country). “Turon zamin ziyo”, Toshkent. – 2014.; Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida) //Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. - S.: SamISI, 2017. 265 b.; Xidirova G.R. Ichki turizm metodologiyasi //Monografiya. “Sadridin Salim Buxoriy”, Buxoro. 2023. -112 b.; Safarov B.Sh. Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari // – Т.: Fan va texnologiya, 2016. -184 b.; Shoimardonkulovich Y. D. et al. Pilgrimage tourism and its prospects in Uzbekistan //Economics. – 2021. – №. 1 (48). – С. 29-31.; Junaydulloyevich A. A. va bq. Diniy turizm va diniy meros: turizm rivojlanish omili //Boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – С. 41-45.; Aliyeva M.T. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari (O‘zbekiston Respublikasi misolida) //Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand. 2019. -78 b.; Mirzayev A.T. O‘zbekistonda turistik-rekreatsiya faoliyatini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish //Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent. 2021. -68 b.; Matyakubov U.R. Orolbo‘yi mintaqasida turizmni strategik rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy va metodologik yo‘nalishlarini takomillashtirish //Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand. 2022. -78 b.; Qodirov A.A. Hududlarda ekologik turizm salohiyatini barqaror rivojlantirish mexanizmining metodologik uslubiy asoslarini takomillashtirish //Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand. 2024. -68 b.; Xalilov S.Sh. Milliy turizm tarmog‘ining raqobat ustunliklarini rivojlantirish yo‘nalishlari va strategiyalarini takomillashtirish //Doktorlik dissertatsiyasi. TDIU. 2024. -212 b.; Jo‘rayeva S. Surxondaryo viloyati ziyoratgohlari tarixi //Monografiya. Toshkent. “O‘zkitob savdo nashriyot matbaa ijodiy uyi”. 2021. -224 b.; Karimov E. E. et al. Sacred Sites, Profane Ideologies: Religious Pilgrimage and the Uzbek State //Everyday life in Central Asia: Past and present. – 2007. – С. 319.; Navruz-zoda Z.B. Turistik hududlar negizida ziyorat klasterlarini shakllantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari //Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. –Buxoro. 2021. – 140 b.; Xudoyarov A.A. Ziyorat turizmi faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi va tartibga soluvchi institutlarning me‘yoriy-huquqiy va ma‘muriy-tashkiliy jihatlari //Журнал инновации в экономике. – 2022. – Т. 5. – №. 4.; Ravshanov T.G. O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari (Malayziya mamlakati misolida) //Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent. 2022. – 56 b.; Bobojonov Sh.U. Buxoro vohasida ziyorat sayyohlighining rivojlanish xususiyatlar (antropologik tadqiqot) //Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. -Toshkent. 2023. -60 b.

yetarlicha o'rganilmaganligi, O'zbekistonda hududlarda ziyorat turizmini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini takomillashtirish bo'yicha yaxlit ilmiy izlanishlar bajarilmaganligi, tadqiqot maqsadini va vazifalarini belgilashda asos bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining №HTR-03 "Hududiy turizmni rivojlantirish" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Hududlarda, xususan, Buxoro viloyatida ziyorat turizmini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning **vazifalari** quyidagilardan iborat:

ziyosat turizmining ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida shakllanish davrini o'rganish;

"ziyosat", "ziyosat turizm" va "ziyosatgoh" tushunchalarining ma'nomohiyati va tavsifini aniqlash;

yetakchi ziyosatgohlarda ziyosat turizmini rivojlantirishning ilg'or xorij tajribasi tahlil qilish;

hududlarda ziyosat turizm rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlarini tadqiq etish;

Buxoro vohasining musulmon ziyosat turizmi imkoniyatlarini tahlil qilish;

Buxoro viloyatida ziyosatgohlarni samarali boshqarish asosida ularning hudud iqtisodiyotidagi salmog'ini oshirishning 2025-2029-yillarda prognoz parametrlarini ishlab chiqish;

hududlarda islomiy ziyosat turizm rivojlanganlik darajasini baholash metodikasini ishlab chiqish;

Buxoro viloyati hududida islomiy ziyosat turizm jozibadorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini asoslash;

Buxoro viloyatida yangi "Abu Hafs Kabir Buxoriy Yo'li" ziyosat turizm marshruti konsepsiyasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti sifatida ziyosat turizmi taklif tizimining tarkibiga kiradigan barcha davlat va nodavlat xo'jalik yurituvchi subyektlar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini Buxoro viloyatida (islomiy) ziyosat turizmining tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini takomillashtirish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmui tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, induksiya va deduksiya, monografik tahlil, statistik tahlil, qiyosiy tahlil, tizimli tahlil, ACES 3.0 metodikasi tahlili, ekspert baholash usuli, xaritalash, iqtisodiy-matematik modellashtirish va ekonometrik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

"Jahon Musulmon Sayohati Indeksining ACES 3.0" metodikasiga Muslim Travel Guide (musulmonlar uchun sayohat qo'llanmalari), mobil ilovalar, diqqatga sazovor joylar, mahalliy va xalqaro turistik tashriflar kabi kichik mezonlarni kiritish orqali "O'zbekiston islomiy ziyosat turizm indeksi"ni baholash taklifi ishlab chiqilgan;

Buxoro viloyati Kogon va Romitan tumanlarining ziyorat turizm imkoniyatlari gorizontal diversifikatsiya asosida “Holy Bukhara Pilgrimage Ring” nomli ziyorat turizm turistik marshrutini joriy qilish orqali hududning turistik salohiyatini kengaytirish taklifi ishlab chiqilgan;

viloyatlararo “Haq”, “G‘arbiy”, “Sharqiy”, “Janubiy”, “Markaziy” kabi yo‘llarni kiritish orqali “Abu Hafs Kabir Buxoriy Yo‘li” nomli ziyorat turizm marshruti loyihasi ishlab chiqilgan;

ziyosat turizmiga ta’sir etuvchi omillarni iqtisodiy baholash orqali Buxoro viloyati ziyoratgohlari daromadlarining 2029-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

islomiy ziyorat yondashuviga ko‘ra “ziyosat turizm” tushunchasi motiv, maqsad, iymon, muqaddas makon kabi ziyoratning omillariga ustuvorlik berish hududlarning ziyoratgohlariga musulmon ziyoratchilarni jalb qilish bo‘yicha manzilli targ‘ibot chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishda foydalanilgan;

hududlarda musulmonlarga do‘stona ziyorat turizmi infratuzilmasini yaratishda “O‘zbekistonning islomiy ziyorat turizm indeksi”ni baholash metodikasidan foydalanib Buxoro viloyatining islomiy ziyorat turizm salohiyati baholangan;

Buxoro viloyatida Diniy va ziyorat turizmni boshqarish tashkilotining faoliyatini yo‘lga qo‘yish negizida hududda islomiy ziyorat turizmni rivojlantirishning tashkiliy bosqichlari ishlab chiqilgan;

“Shrine Pass” bilakuzuklarini joriy etish orqali tashrif buyurgan ziyoratchilarga oid statistik ma‘lumotlarini yig‘ish va qayta ishlash tizimini takomillashtirish taklifi ishlab chiqilgan;

Buxoro viloyatining Kogon va Romitan tumanlarida “Buxoroi Sharif ziyorat halqasi” (keyingi bamlarda “Holy Bukhara Pilgrimage Ring” deb ataladi) nomli ziyorat turizm marshruti taklifi asosida Kogon, Romitan tumanlarining ziyorat turizm salohiyatini oshirishning 2024-yil chora-tadbirlar rejasiga kiritilgan.

Tadqiqot natijalarning ishonchligi. Tadqiqotda qo‘llanilgan metodologik yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, axborotlar bazasi rasmiy manbalardan olinganligi, jumladan, Butunjahon Turizm Tashkiloti, Mastercard-CrescentRating - Xalqaro Halol turizmni baholash tashkiloti, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi, uning Buxoro viloyati turizm boshqarmasi, hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy ma‘lumotlari manbalaridan foydalanilganligi, tegishli xulosa va takliflar amalda sinovdan o‘tkazilganligi, natijalar vakolatli davlat organlari tomonidan ma‘qullanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ziyorat turizmni halol tamoyili asosida tashkil etish to‘g‘risidagi nazariy bilimlarni doirasini kengaytiradi. Dissertatsiyaning nazariy-ilmiy xulosalari va uslubiy tavsiyalaridan O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi faoliyatida hududlarning ziyorat turizmi xizmatlarining sifat va raqobatbardoshligini

oshirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ularda ishlab chiqilgan amaliy taklif va tavsiyalardan respublikada ziyorat turizmi bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar faoliyatini takomillashtirishda, turoperatorlik korxonalari yangi yo'nalishlarni taklif qilishda, shuningdek, xizmat sohasi yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida ziyorat turizm bo'yicha kadrlar, hamda "Ziyorat turizm" fanlaridan o'quv qo'llanma va darsliklar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Hududlarda ziyorat turizmini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlari bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

"Jahon Musulmon Sayohati Indeksining ACES 3.0" metodikasiga Muslim Travel Guide (musulmonlar uchun sayohat qo'llanmalari), mobil ilovalar, diqqatga sazovor joylar, mahalliy va xalqaro turistik tashriflar kabi kichik mezonlarni kiritish orqali "O'zbekiston islomiy ziyorat turizm indeksi"ni baholash taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-238-sonli qarorining 1-ilovasi 1-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 31-yanvardagi 03-10-17-904-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, O'zbekiston hududlarining islomiy ziyorat turizm indeksini baholash imkoniyati yaratilgan;

Buxoro viloyati Kogon va Romitan tumanlarining ziyorat turizm imkoniyatlari gorizontall diversifikatsiya asosida "Holy Bukhara Pilgrimage Ring" nomli ziyorat turizm turistik marshrutini joriy qilish orqali hududning turistik salohiyatini kengaytirish bo'yicha taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-135-sonli qarorining 8-ilovasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 31-yanvardagi 03-10-17-904-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, "Romitan va Kogon tumanlarining turistik salohiyatini oshirish bo'yicha 2024-yilda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar rejasi"ga Kogon tumanining Xo'ja Bahouddin Naqshband, Xo'ja Sayyid Amir Kulol, Xo'ja Ka'bul Axbor Vali hamda Romitan tumanining Xo'ja Ali Romitaniy, Xo'ja Muhammad Boboyi Samosiy, Xo'ja Zafaron, Xo'ja Ubbon ziyoratgohlarida ziyorat turizmni rivojlantirish maqsadida "Holy Bukhara Pilgrimage Ring" turistik marshrutni ishlab chiqish taklifi kiritilishida asos bo'lgan;

viloyatlararo "Haq", "G'arbiy", "Sharqiy", "Janubiy", "Markaziy" kabi yo'llarni kiritish orqali "Abu Hafs Kabir Buxoriy Yo'li" nomli ziyorat turizm marshruti loyihasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli farmoni 1-ilovasining 1.3-bo'limi 26-bandini, hamda 2-bo'limi 58-bandini ishlab chiqishda

foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2025-yil 31-yanvardagi 03-10-17-904-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, respublikaning 68 ta ziyoratgohini birlashtiradigan 5 ta asosiy yo‘llardan tashkil topgan “Abu Hafs Kabir Yo‘li” ziyorat turizm marshrutini turoperatorlar orqali tijoratlashtirish imkoniyati yaratilgan;

ziyosat turizmiga ta’sir etuvchi omillarni iqtisodiy baholash orqali Buxoro viloyati ziyoratgohlari daromadlarining 2029-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlaridan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-135-sonli qarorning chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2025-yil 31-yanvardagi 03-10-17-904-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Buxoro viloyatining ziyoratgohlari daromadining 2025-2029-yillar davomida o‘rtacha o‘sishi 14,3 foiz diapazonga teng bo‘lgan maqsadli prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 12 ta, jumladan, 6 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shundan, 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiya hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 137 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti hamda predmeti shakllantirilgan, mavzuning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o‘tganligi hamda nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Islomiy ziyorat turizmini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida jahonda ziyorat turizmi, xususan, islomiy tamoyilga asoslangan ziyoratning ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida shakllanish davri, Buxoro vohasida musulmon ziyorat turizmining rivojlanish davrlari, “ziyosat”, “ziyosat turizm” va “ziyosatgoh” tushunchalarining ma‘nomohiyati va tavsifi, jahonning yetakchi ziyoratgohlarida ziyorat turizmini

rivojlantirishning ilg'or xorij tajribasi o'rganilgan.

Ziyorat insonlar ongida e'tiqod tushunchasi shakllanishi bilan bog'liq jarayondir. Ziyorat kategoriyasiga terminalogik jihatdan yondashgan holda tadqiqotda fokus musulmon ziyorat turizmiga qaratilib, musulmon olami ziyoratini g'arbiy ziyorat bilan solishtirganda muqaddas joylarga sayohat tashabbusi dastlab islomiy farzlardan kelib chiqqanligi aniqlangan. Muallif ziyoratni, Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam va imomlar abadiy qo'nim topgan maskanlar ziyorati insonlar hayoti va fe'l-atvorini o'zgartirishi to'g'risidagi fikrlarini inobatga olgan holda, ziyorat kategoriyasining farz va sunnat amallaridan kelib chiqib islomiy yondashuvga ko'ra **Farz ziyorat amali va Sunnat ziyorat amali** turlariga bo'lib tavsiflagan.

Tadqiqot doirasida "Buxoroda musulmon ziyorati qachon paydo bo'lgan?", degan savol bilan, empirik so'rovlar va boshqa ilmiy manbalar tahliliga asoslanib, Buxoro vohasida "Musulmon ziyorati → Ziyorat turizmi"ning rivojlanishini VIII-IX asrlar, X-XII asrlar, XIII-XIV asrlar, XV-XVI asrlar, XVII-XVIII asrlar, XIX-XX asrlar, XXI asr rivojlanish davrlariga ajratish tavsiya etilgan.

Tadqiqot doirasida izohli va diniy lug'atlar, ziyorat turizmga oid yozma ilmiy manbalarni umumlashtirib o'rganilganda ziyorat asosan islomiy ta'limot egalarining tashrifiga mo'ljallanganligini, o'lkamizda ziyorat motivlarining paydo bo'lishi, mazkur faoliyatga ilmiy jihatdan yondashuv zarurligi, respublikamizda ziyorat turizmini rivojlantirish va samaradorligini oshirish uchun yetarli tadqiqot ishlari olib borilishi zarurligi ko'rinib turibdi.

1-jadval

Ziyorat turizm tushunchasiga turli yondashuvlar asosida berilgan ta'riflar⁶

T/r	Muallif	Ta'rif	Yondashuv yo'nalishi
1	S. Bhardwaj	turli mintaqalarda Islomning rang-barang madaniyatini namoyon etuvchi ixtiyoriy diniy safar.	Antropologik va madaniy yondashuv
2	Y. Meri	Islomda Haj va Umradan tashqari har qanday muqaddas joyni taqvo bilan ziyorat qilish.	Diniy yondashuv
3	M. Ebadi	ziyoratgoh ziyorati bo'lib, musulmon va nomusulmonlarning avliyolar, shahidlar, payg'ambarlar, imomlar va boshqa erkak va ayol muqaddas shaxslar bilan bog'liq bo'lgan ziyoratgohlar, masjidlar va qabrlarga tashrifi.	Fenomenologik yondashuv
4	M.W. Bari & Q. Khan	ma'lum bir diniy e'tiqod tizimiga ishongan kishi uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan ba'zi joylarga jismoniy sayohat.	Fenomenologik yondashuv
5	T.G. Ravshanov	insonlar o'z ma'naviy va ruhiy ehtiyojlarini qondirish hamda diniy amallarni bajarish maqsadida amalga oshiruvchi sayohatlaridir.	Funksional yondashuv
6	M.X. Kurbanova ⁷	musulmonlarning botiniy va zohiriy dunyosini poklash maqsadida dunyoviy hoyu-havaslardan	Fenomenologik va teologik yondashuv

⁶ Muallif tomonidan mahalliy va xorijiy adabiyotlar tahlili asosida tuzilgan

⁷ Muallif tomonidan taklif etilgan ta'rif

	voz kechgan holda Alloh rizoligini istab muqaddas maskanlarni ziyorat qilishidir.	
--	---	--

Ziyorat turizmining halol va harom tamoyili asosida xizmat ko'rsatilishi, sayohat obyekti islomiy ziyoratgohlar ekanligini ta'kidlanib, 1-jadvalda ziyorat turizm - bu musulmonlarning botiniy va zohiriy dunyosini poklash maqsadida dunyoviy hoyu-havaslardan voz kechgan holda Alloh rizoligini istab muqaddas maskanlarni ziyorat qilishidir, degan mualliflik ta'rifi keltirilgan.

Keltirilgan ta'rifning boshqa ta'riflardan asosiy farqi ziyorat turizmiga xos bo'lgan fenomenologik va teologik ahamiyatdagi xususiyatlari kengroq ochib berilib, uni ta'riflashda motiv, maqsad, iymon, muqaddas makon kabi ziyoratning asosiy omillari⁸ qamrab olingan. Mazkur ta'rifda: motiv - botiniy va zohiriy poklanish, maqsad - dunyoviy hoyu-havaslardan voz kechish, iymon - Alloh rizoligi, muqaddas makon - muqaddas maskan.

Ilmiy ish doirasida Iroq, Ispaniya, Hindiston ziyorat turizmi tajribalarini o'rganilib, ularda tashkil etilgan amaliyotni O'zbekiston ziyoratgohlari uchun ham qo'llash, Islom, nasroniy, yahudiy, budda dini vakillari uchun alohida turistik marshrutlarni tashkil etish, jumladan, sunniy musulmonlar uchun so'fiylarning yo'li, shialar uchun imomlar ziyorati, hadis ilmiga qiziquvchilar uchun muhaddislar yo'li, fiqh ilmi vakillari uchun faqihlar ziyorati, hunarmandlar uchun ularning avliyolariga ziyorat marshrutlarini tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlari ijrosini ta'minlashga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **“Hududlarda musulmon ziyorat turizmi rivojlanishi asosiy ko'rsatkichlarining umumiy tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida mamlakatimizda ziyorat turizm rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari, Buxoro vohasining musulmon ziyorat turizm imkoniyatlari tahlillari tadqiq qilingan, hamda viloyatda ziyoratgohlarni samarali boshqarish asosida ularning hudud iqtisodiyotidagi salmog'ini oshirishning 2025-2029-yillarda prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

O'zbekistondagi 1183 ta Islom diniga oid ziyoratgohlar Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Surxondaryo va boshqa viloyatlarga jahon musulmon ziyoratchilarini jalb qilib kelmoqda. 2024-yilda O'zbekiston Jahon Musulmon Sayohati Indeksi (JMSI)ning reytingda 100 ballik tizimdan umumiy 64 ball bilan 135 ta davlat orasidan 14-o'rinni egallab yetakchi mamlakatlar qatoriga kiritildi. 2024-yilda mamlakatga 1,500 million nafar ziyoratchidan 1,300 nafari islomiy ziyorat maqsadida tashrif buyurib, ularning 96 foizi qo'shni Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston Respublikalari hissasiga to'g'ri kelgan.

Imom al-Buxoriy majmuasi, Hakim at-Tezmiziy majmuasi, Imom Moturidiy maqbarasi, Xast Imom, Shohi Zinda majmualari, Go'ri Amir maqbarasi, “Yetti pir” ziyoratgohlari, Poyi kalon ansambli, Ismoil Somoniy, Chashmayi Ayub maqbaralari, Langar Ota ziyoratgohi, Xo'ja Doniyor maqbarasi O'zbekistonda xorijlik va mahalliy islom dini vakillari eng ko'p ziyorat qilinadigan diqqatga sazovor joylar sanaladi.


Bugungi kunda Buxoro viloyatida 829 ta madaniy meros obyektlari (MMO) bo'lib, ularning 139 tasiga sayyohlar tashrif buyurishi uchun imkoniyat yaratilgan,

⁸ Stoddard R. Defining and classifying pilgrimages. – 1997.


175 ta MMO ta'mirtalab holatda bo'lib, ularni restavratsiya qilish ishlari olib borilmoqda. MMOning 8 tasi mehmonxona, mos ravishda 14 tasi restoran sifatida faoliyati tiklangan. 51 ta masjid, ansambl, xonaqo va madrasalar esa ziyoratgoh sifatida MMO ro'yxatidan joy olgan. Ziyoratchilar bu muqaddas joylarni shifo topish ilinjida, farzand ko'rish umidida, tavba qilish, ish yoki o'qishda muvaffaqiyat qozonish, nazr qilish, so'fiy ibodatlarini ado etish, zikr qilish, muqaddas kun va sanalarni nishonlash maqsadlarida ziyorat qilmoqdalar.

Nazariy va empirik o'rganishlar natijasida Buxoro va uning atrofida 156 ta yetib borish imkoniyati bo'lgan avliyolar qabrlari va ziyoratgohlari borligi, ayrimlari esa qarovsiz holatda ekanligi aniqlandi (1-rasm). Vaholanki, bugungi kunda viloyatda ziyorat turizm obyektlari soni 51 ta, shulardan 46 tasi islomiy ziyorat turizm obyektlari deb e'tirof etilgan.

156 ta tabarruk maskandan 9 tasi ayol so'fiy va avliyolarning muqaddas qadamjolari bo'lib, musulmon ayollarning ziyoratini yanada rivojlantirish imkonini beradi. 2-rasmga asosan hududda xalq tabobatiga asoslangan ziyorat turizmi va ilmiy-ma'rifiy ziyorat turizmi yo'nalishlarini ishlab chiqish imkoniyati mavjud.



1-rasm. Buxoro vohasining musulmon ziyoratgohlari soni⁹



2-rasm. Buxoro ziyoratgohlarining tasniflanishi¹⁰

2024-yilda xizmatlar eksporti 436,30 million AQSH dollarini, mahalliy sayyohlardan olingan tushum esa 802,1 milliard so'mni tashkil etib, ziyoratgohlarga 4,30 milliard so'm miqdorida tushum qilindi. Bu barcha ko'rsatkichlarda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 23-29 foiz atrofida o'sish natijalarini aks ettirgan.

Ziyorat turizmning asosini Musulmonlarga do'stona turizm, Halol turizm, yoki boshqacha qilib aytganda, Islomiy turizm tashkil etganligi bois halol sayohat talablari asosida shariatga asoslangan taklif tizimi yaratiladi. Buxoro viloyatida ziyorat turizmini yo'lga qo'yish bo'yicha ko'plab sa'y-harakatlar bo'lishiga qaramay, bu borada hali bajarilishi kerak bo'lgan ishlar anchagina. Statistik ma'lumotlarni yig'ish, ma'lumotlarni tahlil qilish, mintaqaga ziyoratchilar tashrifini ta'minlash, barqarorlik bilan bog'liq muammolar, xizmat ko'rsatish darajasining pastligi, ma'lumot yetishmasligi va musulmon ziyoratgohlariga yetib borishdagi qiyinchiliklar va hokazo.

Ilmiy izlanishlar natijasidagi fikr-mulohazalarni asoslash, hududda ziyorat turizmini rivojlantirishning iqtisodiy jihatlarini tadqiq etish maqsadida, Buxoro viloyatining ziyorat turizmdan tushadigan daromadga ta'sir etuvchi turizm

⁹ Nazariy va empirik tadqiqotlar asosida muallif tomonidan aniqlangan

¹⁰ Nazariy va empirik tadqiqotlar asosida muallif tomonidan aniqlangan

infratuzilmasiga jalb qilingan investitsiya miqdori, ziyoratgohlar soni, turistik avtotransport vositalari soni, hududdagi nizolar yoki yuqumli kasalliklar kabi omillarni o‘rganilgan. Bu omillarning aksariyat qismi bir-biri bilan multikollinear bo‘lganligi uchun turizm infratuzilmasiga jalb qilingan investitsiya miqdori, ziyoratgohlar soni, hududdagi nizolar yoki yuqumli kasalliklar asosiy ta’sir qiluvchi omillar sifatida tanlab olingan.

Mazkur omillarning 2017-yildan 2024-yilgacha bo‘lgan 8 yillik statistik ma’lumotlarini o‘rganib, ko‘p omilli regressiya tenglama quyidagicha ifodalandi:

$$y = 19,44 + 0,046x_1 + 0,041x_2 - 0,91d_t \quad (1)$$

Bunda,

y – ziyorat turizmdan keladigan daromad;

X_1 - turizm infratuzilmasiga jalb qilingan investitsiya;

X_2 - ziyoratgohlar soni;

d_t - hududdagi nizolar yoki yuqumli kasalliklar.

Bu regressiya tenglamadan x_1 omilning bir birlikka o‘zgarishi y ning 0,046 birlik ortishiga, ikkinchi omil x_2 ning bir birlikka o‘zgarishi y ning 0,041 birlikka ortishiga, uchinchi omil d_t ning bir birlikka o‘zgarishi y ning 0,91 birlikka kamayishiga sabab bo‘ladi degan xulosaga kelish mumkin.

Yuqorida aniqlangan koeffitsiyentlarni o‘z o‘rniga keltirib, taklif qilingan modelni quyidagicha ifodalangan:

$$Y = e^{19,44} \cdot X_1^{0,046} \cdot e^{0,041X_2} \cdot e^{-0,91d_t} \quad (2)$$


Regressiya tenglamaning ishonchliligi korrelyatsiya va determinatsiya koeffitsiyenti, approksimatsiya xatoligi hamda gipotezalarga tekshirib ko‘rilgan. Aproksimatsiya xatoligi 1,08%, ya’ni, regressiya tenglamaning ishonchliligi yuqori darajadali dalillangan. Tanlangan omillarning ziyorat turizm tushumiga ta’sir darajasining umumiy bog‘liqligini topish uchun topilgan ko‘p o‘lchovli korrelyatsiya koeffitsiyenti esa 0,9037, ya’ni, taklif qilinayotgan regressiya tenglamaning ishonchliligi yuqori darajada ekanligi aniqlangan.

Tanlab olingan turizm infratuzilmasiga jalb qilingan investitsiya miqdori, ziyoratgohlar soni, hududdagi nizolar yoki yuqumli kasalliklar kabi omillar Buxoro viloyatining ziyorat turizmi bo‘yicha daromadga ta’sirining qamrov darajasi necha foizni tashkil etishini hisoblash uchun determinatsiya koeffitsiyenti aniqlandi. Buning uchun korrelyatsiya koeffitsiyentidan foydalanilib, determinatsiya koeffitsiyenti quyidagicha aniqlandi:

$$R^2 = 0,9037^2 = 0,817 \quad (3)$$

Bu natijadan shunday xulosaga kelish mumkinki, turizm infratuzilmasiga jalb qilingan investitsiya miqdori, ziyoratgohlar soni, hududdagi nizolar yoki yuqumli kasalliklar Buxoro viloyat ziyorat turizmi bo‘yicha daromadga ta’sir darajasini 82 foizini qamrab olyapti. Bu natija yuqori bo‘lganligi sabab omillar to‘g‘ri tanlanganligi isbotlandi.

Tadqiqot ishida 2025-2029-yillar uchun Buxoro viloyatining ziyorat turizmi bo'yicha daromadining prognoz natijalari aniqlandi (3-rasm).



3-rasm. 2025-2029-yillarda Buxoro viloyati ziyoratgohlari daromadlarining prognoz ko'rsatkichlari (milliard so'mda)¹¹

Buxoro viloyat ziyorat turizmi bo'yicha tushadigan tushumning kelajakda o'rtacha o'sish darajasi quyidagicha aniqlandi:

$$K_{geom} = \sqrt[5]{\frac{5,54}{5} \cdot \frac{6,46}{5,54} \cdot \frac{7,46}{6,46} \cdot \frac{8,54}{7,46} \cdot \frac{9,7}{8,54}} = 1,143 \quad (4)$$

Ekonometrik tahlillarga ko'ra, viloyatda ziyorat turizmi bo'yicha tushadigan tushumning 2025-yilda kutiladigan natijasi 5,54 milliard so'mni tashkil qilar ekan. Bu ko'rsatkich 2029-yilga kelib 9,7 milliard so'mni tashkil etadi. Prognoz davr bo'lgan 2025-yildan 2029-yilgacha yillik o'rtacha o'sish sur'ati 14,3 foizni tashkil qiladi.

Demak, viloyatda turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish, to'g'ri krizis boshqaruvini yo'lga qo'yish, eng asosiysi, ziyorat qilish uchun xalqaro andozadagi shart-sharoitlari mavjud ziyoratgohlar sonini oshirish hududda mazkur yo'nalishni rivojlantirish va undan tushadigan daromadni oshirishga xizmat qilar ekan.

Dissertatsiyaning **“Buxoro viloyatida musulmon ziyorat turizmini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini takomillashtirish”** deb nomlangan uchinchi bobida hududlarda islomiy ziyorat turizm rivojlanganlik darajasini baholash metodikasini joriy etish asoslanib, Buxoro viloyati hududida islomiy ziyorat turizm jozibadorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini, hududda yangi “Abu Hafs Kabir Buxoriy Yo'li” ziyorat turizm marshruti konsepsiyasi ishlab chiqilgan.

Jahon Musulmon Sayohati Indeksining ACES 3.0 metodikasi, Indonesian Muslim Travel Index - destinatsiyaning tayyorlik darajasini baholash mezonlarini mahalliy shart-sharoitga moslashtirib, JMSI ACES 3.0 metodikasining quyi

¹¹ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan

bo'g'inlariga Muslim Travel Guide (musulmonlar uchun sayohat qo'llanmalari), mobil ilovalar, diqqatga sazovor joylar, hamda turistik tashriflarni mahalliy va xalqaro oqim kichik mezonlarini kiritish orqali "O'zbekistonning islomiy ziyorat turizm indeksi"ni baholash metodikasi ishlab chiqilgan (4-rasm).

Hududga yetib kelish osonligi	Kommunikatsiya	Atrof-muhit	Xizmatlar
<ul style="list-style-type: none"> Viza tizimi Havo yo'llari Temir yo'l Transport infratuzilmasi 	<ul style="list-style-type: none"> Muslim Travel Guide Manfaatdor tomonlarning xabardorligi Targ'ibot va raqamli marketing Kommunikativlik Mobil ilovalar 	<ul style="list-style-type: none"> Xavfsizlik Barqarorlik Imkoniyati cheklangan sayyohlar uchun qulayliklar Mahalliy turistik tashriflar Xalqaro turistik tashriflar 	<ul style="list-style-type: none"> Ibodat joylari Halol taomlar Aeroport Mehmonxona Moddiy-madaniy meros Diqqatga sazovor joylar

4-rasm. O'zbekistonning islomiy ziyorat turizm indeksi mezonlari¹²

Mazkur metodika asosida respublika viloyatlarining islomiy ziyorat turizm salohiyati 100 ballik tizimda baholanadi. Uni amaliyotga joriy etish nafaqat islomiy ziyorat turizmi, balki, musulmon sayyohlarga xizmat ko'rsatishda hududning tayyorlik darajasini aniqlashga va mavjud kamchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi.

4-rasmda keltirilgan 20 ta kichik mezon 5 ta, juda yaxshi, yaxshi, o'rtacha, yomon, juda yomon, ko'rsatkichlar bilan 1 balldan 5 ballgacha, mavjud bo'lmagan kichik mezonlar esa "0" ball bilan baholanadi. Hududning 4 asosiy mezon - destinatsiyaga yetib kelish osonligi, kommunikatsiya, turizmni qo'llab-quvvatlovchi atrof-muhit va xizmatlar bo'yicha tayyorlik darajasi oraliqlarda belgilanib, ballar jamlangan holda hududning musulmon ziyoratchilarga xizmat ko'rsatishga tayyorlik darajasi aniqlanadi (2-jadval).

2-jadval

Xizmat ko'rsatishga tayyorlik darajasi

Tayyorlik darajasi	Juda tayyor	Tayyor	O'rtacha tayyor	Uncha tayyor emas	Umuman tayyor emas
Ball	80-100	60-79	40-59	21-39	1-20

Xulosa qilib aytganda, yakuniy ballar jamlanib, umumiy natijaga ko'ra tayyorlik darajasi kam bo'lgan mezonlar ustida ishlanadi, muammolar bartaraf etilishi uchun soha vakillariga "Yo'l xaritasi" asosida vazifalar birlashtirib beriladi.

Tadqiqot davomida taklif etilgan O'zbekistonning islomiy ziyorat turizm indeksini baholash metodikasi asosida Buxoro viloyatining islomiy ziyorat turizmiga tayyorlik darajasini aniqlash maqsadida 22 nafar turizm sohasi

¹² Global Muslim Travel Index 2024 hamda Indonesian Muslim Travel Index asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan


mutaxassislari, jumladan, mehmonxona, restoran, gid, diniy qo‘mita vakillaridan iborat ekspertlar guruhidan baholash savolnomasi olindi. Savolnomaning to‘g‘ri tuzilganligi va undagi ekspertlar bahosining ishonchliligini aniqlashda Kronbax Alfa koeffitsiyentidan foydalanilgan.

Unga ko‘ra quyidagicha natija hosil bo‘ldi:

$$\alpha = \frac{N}{N-1} \cdot \left(1 - \frac{\sum S_i^2}{\sigma_T^2}\right) = \frac{20}{19} \cdot \left(1 - \frac{17}{173,228}\right) = 0,95 \quad (5)$$

Bu natijadan ko‘rinadiki, Kronbax Alfa formulasi yordamida hisoblangan so‘rovnomaning ishonchligi 0,95 ga teng va yuqori ishonchlilikka ega ekan. Demak, so‘rovnomadagi savollarga ekspertlar tomonidan berilgan baho orqali shakllantirilgan har bir taklif va umumiy baholar asosli hisoblanadi.

Asosiy mezonlar 5 ballik tizimdan eng yuqori ball - hududlarga yetib kelishning osonligi - 4,03 ball bilan, atrof-muhit - 3,75, xizmatlar - 3,35 ball bilan, kommunikatsiya esa eng past, o‘rtacha 2 ball bilan baholanib (5-rasm) birinchi navbatda chora-tadbirlar qo‘llanilishi kerak bo‘lgan mezon sifatida belgilandi.



5-rasm. Mezon ko‘rsatkichlari o‘rtacha bahosi¹³

Ekspertlarning umumiy baholari orqali Buxoro viloyatining islomiy ziyorat turizmida tayyorlik darajasi aniqlangan.


$$K_{arif} = \frac{55 \cdot 11 + 69 \cdot 8 + 83 \cdot 2 + 97 \cdot 1}{22} = \frac{605 + 552 + 166 + 97}{22} = 64,55 \quad (6)$$

Demak, Buxoro viloyatida musulmon ziyoratchilarga xizmat ko‘rsatishning tayyorligi 64,55 ballga teng ekanligi uning darajasi “Tayyor” holatda ekanligini ko‘rsatadi. Hududda musulmon ziyoratchilarga xizmat ko‘rsatishning tayyorlik darajasi nisbatan yuqori bo‘lishiga qaramay, hanuzgacha yaxshilanishi kerak bo‘lgan infratuzilma va takomillashtirishi lozim bo‘lgan xizmatlar mavjud. Buning uchun, avvalambor Muslim Travel Guide va mobil ilovalarni yaratish, diqqatga sazovor joylarda musulmonlarga do‘stona turizm infratuzilmasini, hududda imkoniyati cheklangan sayyohlar uchun ziyorat imkoniyatlarini shakllantirish, xizmat ko‘rsatuvchilarning malakasini oshirishga ko‘proq e‘tibor qaratish hududni ziyorat turizm yo‘nalishida sayyohlar uchun ziyoratbop maskanga aylantirishda

¹³ Ekspert-baholash savolnomasi javoblari natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

qilinishi kerak bo'lgan asosiy vazifalar qatorida turadi.

Muallifning fikricha, O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish, sayyohlar uchun qulay sharoitlar yaratish va mahalliy iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash maqsadida Turizmni rivojlantirish qo'mitasi huzurida alohida "Diniy va ziyorat turizmni boshqarish tashkiloti" (Religious and pilgrimage tourism management organization), viloyatlarda uning hududiy bo'limlariga asos solinishi, tashkilot tomonidan hududning ziyorat turizm imkoniyatini hisobga olgan holda uni rivojlantirish chora-tadbirlarining bir necha bosqichlarini ilmiy asoslab amaliy takliflar ishlab chiqilgan (6-rasm).



6-rasm. Buxoro viloyatida islomiy ziyorat turizmini rivojlantirishning tashkiliy bosqichlari¹⁴


Hozirda ziyorat turizmini tashkil etishdagi asosiy muammolardan biri ziyoratchilarning qayerdan, qanday transport vositasi bilan, nima maqsadda, nechi nafar kelganligi to'g'risida ma'lumotning yig'ishning imkoni yo'qligidir. Ishonchli ma'lumotlarning mavjud emasligi sektorni to'g'ri tahlil qilish va samarali hamkorlik tizimini yaratishga to'sqinlik qiladi. Har bir ziyoratgohning o'zida statistik ma'lumotlar jamlanishi aniq dalillarni to'plashga imkon beradi.

Tadqiqotda muqaddas qadamjolarining ziyoratchilari uchun ziyoratgohga kirish ruxsatnomasi sifatida "Shrine Pass" bilakuzuklarni joriy etish taklifi ilgari surilgan. Mazkur bilakuzuklarni ichki va xorijiy sayyohlar infokiosklarda va ziyoratgohlarga kirish joyida, to'lov evaziga, musulmon ziyorat obyektlariga bir necha marotaba kirish chiptasi sifatida sotib olishlari mumkin. Ziyoratchining ismi, yoshi, dini, qaysi davlatdan ekanligi va nima maqsadda muqaddas joylarni ziyorat qilayotganligi bilakuzukdagi QR kodda aks etib, u orqali kirish turniketida o'tish ta'minlanib, ma'lumotlar statistika agentligi, Turizm qo'mitasi, diniy idoralarning markaziy tizimiga borib jamlanadi. Statistik jihatdan ziyoratchilar maqsadiga ko'ra, ZT – Ziyarat traveler, CT – Cultural traveler, WT - Wellness traveler, R – Researcher sifatida tasniflanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-sonli "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi

¹⁴ Muallif ishlanmasi

qarorining “Buxoro viloyatida turizmni rivojlantirish bo‘yicha 2023-yilda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar rejasi”ga asosan Buxoro davlat universitetining Kogon va Romitan tumanlari bo‘ylab turistik salohiyatni oshirish bo‘yicha 2024-yil rejasi asosida yangi “**Holy Bukhara Pilgrimage Ring**” ziyorat turizm turistik marshruti ishlab chiqildi.



7-rasm. “Holy Bukhara Pilgrimage Ring” ziyorat turizm marshruti¹⁵

Mazkur yo‘nalish Kogon va Romitan tumanlari bo‘ylab uyushtirilib, u Xoja Bahouddin Naqshband, Sayyid Amir Kulol, Xoja Ka‘bul Axbor Vali, Xoja Ali Romitaniy, Xo‘ja Muhammad Boboyi Samosiy, Xo‘ja Zafaron, Xo‘ja Ubbon kabi 7 ta tobein, hadisshunos va din peshvolari qo‘nim topgan muqaddas maskanlarni qamrab olgan (7-rasm). Bu joylarga ziyoratchilar kelib ruhiy taskin olishlari, Xo‘ja Zafaron ziyoratgohida sariq kasalligiga chalinganlar, Xo‘ja Ubbon ziyoratgohida teri-tanosil kasalligiga davo olish mumkin.

3-jadval

Turpaket xarajatlari hisob-kitobi¹⁶

Turpaket shakli	Kishi	Transport xarajatlari	Ovqatlanish xarajatlari (1 mahal - tushlik)	Gid uchun to‘lov	Turoperatorlik tashkiloti ustamasi (10%)	Turpaket shakliga ko‘ra jami xarajat
Individual	1-3*	500000	165000	500000	116500	1281500
Guruhli	4-10**	1000000	500000	500000	200000	2200000
	11-20***	1500000	720000	500000	272000	2992000

* 3 kishilik turpaket xarajatlari

** 10 kishilik turpaket xarajatlari

*** 15 kishilik turpaket xarajatlari

**** Jadvalda keltirilgan narxlar 05.01.2025-yil holati ma’lumotlari asosida tayyorlangan.

¹⁵ Muallif ishlanmasi

¹⁶ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

**** Individual turda ovqatlanish xarajati kishi boshiga o‘rtacha 55000, guruhli turlarda esa 48000-50000 so‘mni tashkil etadi.

3-jadvalda Buxoroning Eski shahar qismidan boshlanadigan, ichki va xorijiy ziyoratchilar uchun mo‘ljallangan 123 km masofaga cho‘zilgan “Holy Bukhara Pilgrimage Ring” nomli ziyorat turizm marshrutining 1 kunlik turpaket xarajatlari hisob-kitobi amalga oshirilgan. Unga ko‘ra 3 kishilik individual turning 1 kishi uchun jami transport, ovqatlanish, gid, turoperatorlik tashkiloti xarajatlari 428000 so‘mni tashkil etadi. Agar turda 10 kishi ishtiroki ta‘minlansa bu turning jami xarajati 2200000 so‘mni, bir kishi uchun esa 220000 so‘mni, agar guruhli turda 15 kishi ishtirok etsa guruhdagi har bir sayyohga 200000 so‘m hisobidagi turpaket to‘g‘ri keladi. Turoperatorlik tashkilotining turmahsulotni sotishdan oladigan ustamasi turoperator tomonidan belgilanadigan foizning miqdoriga hamda guruhdagi kishilar soniga qarab o‘zgaradi.

4-jadval

“Holy Bukhara Pilgrimage Ring” ziyorat turizm yo‘nalishida ziyorat qiluvchi bir nafar ziyoratchining hudud iqtisodiyotiga ta‘siri¹⁷

Sohalar	Bevosita ta‘sir, so‘m	Bilvosita ta‘sir, so‘m	Induksiyalan gan ta‘sir, so‘m	Multiplikator orqali hudud iqtisodiyotiga umumiy ta‘siri, so‘m
Transport va logistika	100000	50000	15000	165000
Oziq-ovqat va restoran xizmatlari	50000	25000	7500	82500
Ekskursiya va gid xizmatlari	50000	25000	7500	82500
Turoperatorlik tashkiloti xizmatlari	20000	10000	3000	33000
Jami	220000	110000	33000	363000

Ushbu turistik yo‘nalish taklifi yaratilishi Kogon va Romitan tumanlarining ziyorat turizmi salohiyatini oshirish, yangi turistik marshrutni tijoratlashtirish imkonini beradi.

4-jadvalda “Holy Bukhara Pilgrimage Ring” ziyorat turizm yo‘nalishi bilan ziyorat qiluvchi bir nafar ziyoratchining Buxoro viloyati iqtisodiga ta‘siri 363000 bo‘lgan taqdirda, ziyoratchilar soni, masalan, bir haftada 10 nafar bo‘lsa, ularning hudud iqtisodiyotiga ta‘siri 3630000 so‘m, agar bir yilda 200 nafar ziyoratchi ishtirok etsa Buxoro viloyati iqtisodida ziyorat turizm yo‘nalishidan multiplikativ samara 72 million 600 ming so‘mni tashkil etishi aniqlandi. Ushbu keltirilgan ko‘rsatkichlarga tamaddi qilish, suvenirlar sotib olish, mijozni yashash manzilgacha eltib qo‘yish kabi qo‘shimcha xizmatlar kiritilgan taqdirda qo‘shimcha iqtisodiy o‘sishga olib kelishi aniqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi ““O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli farmonda belgilangan ziyorat turizmini rivojlantirishga doir maqsadlarni amalga oshirishda buyuk tariximizga tayangan holda ajdodlar merosini ulug‘lash, ularni kelajak

¹⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan


avlodga yetkazish, xalqaro hamjamiyatda qayta e'tirof etish maqsadida quyida Respublika bo'ylab **“Abu Hafs Kabir Buxoriy Yo‘li”** nomli **ziyosat turizm marshruti konsepsiyasini** ishlab chiqilgan.

Ispaniya, Iroq, Hindistonning “Muqaddas Yo‘l” bo'ylab piyoda safar qilish tajribasini O‘zbekistonda joriy etish maqsadida ishlab chiqilgan loyiha asosan piyoda ziyosat qilishni qo‘llab-quvvatlaydi. Chunki, piyoda safarga otlanganda inson ham jismonan sog‘lom bo‘ladi, ham ma‘nan yetuklikka erishadi, kecha va bugunning tahlilini, kelajak rejalarini tuzadi. Biroq, hozirgi kunda jamiyatimizda ko‘pchilik insonlar turli tashvishlar bilan band bo‘lgan bir davrda piyoda safar qilish uchun vaqt muammo bo‘lishini inobatga olib, turistik marshrutning transport vositasida safar qilinish xarajatlari tuzilgan.

Piyoda safar qilinganda 20-44 kun oraliq‘ida davom etadigan sayohatlar Buxoroga kelish uchun xohlangan nuqtadan boshlanishi mumkin.

Yo‘nalishning **asosiy maqsadi**, diniy, madaniy va tarixiy ahamiyatga ega joylarga tashrif buyurishni osonlashtirish va bunday joylarning turistik salohiyatini kengaytirishdir. Mazkur marshrutlar orqali ziyoratchilar nafaqat ruhiy xotirjamlikka erishadi, balki madaniy va tarixiy merosni o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ziyosat turizm orqali, o‘z navbatida, hududning iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo‘shish, mahalliy aholi uchun ish o‘rinlari yaratish va hududning brendini oshirish ham maqsad qilingan.

“Abu Hafs Kabir Buxoriy Yo‘li” ziyosat turizm marshruti Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm, Navoiy, Buxoro, Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo, Toshkent, Namangan, Farg‘ona, Andijon viloyatlarida joylashgan payg‘ambarlar, sahobalar, tobeinlar, faqihlar, muhaddislar va karomatgo‘y avliyolarning 68 ta ziyosatgohlarini o‘zida jamlagan.



8-rasm. “Abu Hafs Kabir Buxoriy Yo‘li” ziyosat turizm yo‘nalish xaritasi¹⁸

¹⁸ Muallif ishlanmasi

8-rasmda “Abu Hafs Kabir Buxoriy Yo‘li” ziyorat turizm marshrutining 5 ta asosiy yo‘l orqali Buxoroga kelish xaritasi tasvirlangan. Bunda:

- ● ● ● to‘q sariq rangda – G‘arbiy yo‘l: Qoraqalpog‘iston Respublikasi → Xorazm → Buxoro yo‘li;
- ● ● ● pushti rangda – Markaziy yo‘l: Toshkent → Samarqand → Navoiy → Buxoro yo‘li;
- ● ● ● ko‘k rangda – Sharqiy yo‘l: Andijon → Namangan → Farg‘ona → Samarqand → Buxoro yo‘li;
- ● ● ● qizil rangda – Janubiy yo‘l: Surxondaryo → Qashqadaryo → Buxoro yo‘li;
- ● ● ● yashil rangda – Haq yo‘li: Buxoro yo‘li.

Marshrutning birinchi yo‘li 25 kmlik masofada 12 ta ziyoratgohni qamrab olgan Buxoro viloyati ichida uyushtiriladigan “Haq” yo‘nalishidir. Ikkinchi yo‘nalish 617 kmga cho‘zilgan 3 kunlik Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm orqali Buxoroga yetib kelish ziyorat safari bo‘lib 19 ta obyekt ziyorat qilinadi. Uchinchi, “Sharqiy yo‘l” vodiy orqali Samarqanddan o‘tib Buxoroga yetib kelinadi. Bu eng uzun, 1340 kmlik, yo‘l bo‘lib 6 kunlik safarni o‘z ichiga oladi.

5-jadval

“Abu Hafs Kabir Buxoriy Yo‘li” marshrutining asosiy yo‘nalishlari¹⁹

T/r	Yo‘nalish	Hududlar	Umumiy oraliq masofa	Yo‘nalish doirasidagi asosiy ziyorat obyektlari soni	Ziyorat davomiyligi	Piyoda
1	Haq yo‘li	Buxoro	25 km	12	2 kun	2 kun
2	G‘arbiy yo‘l	Qoraqalpog‘iston Respublikasi → Xorazm → Buxoro	617 km	19	3 kun	25 kun
3	Sharqiy yo‘l	Andijon → Namangan → Farg‘ona → Samarqand → Buxoro	1340 km	35	6 kun	54 kun
4	Janubiy yo‘l	Surxondaryo → Qashqadaryo → Buxoro	763 km	21	4 kun	31 kun
5	Markaziy yo‘l	Toshkent → Samarqand → Navoiy → Buxoro	892 km	37	6 kun	36 kun

To‘rtinchi yo‘l – “Janubiy yo‘l” deb nomlanib, yo‘nalishda 4 kun ichida 763 kmlik masofada Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlari bo‘ylab yoyilgan 21 ta ziyoratgohni ziyorat qilishni nazarda tutadi. Oxirgisi, “Markaziy yo‘l”da - Toshkent,

¹⁹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Samarqand, Navoiy, Buxoroga 6 kunlik ziyorat turni uyushtirish belgilangan (5-jadval).

Yo‘nalish doirasida ziyoratga qatnashuvchi maqsadli auditoriya 4 bosqichda shakllantirildi. Jumladan, 1-bosqichda har yili imkoniyati cheklangan va nogironligi bor shaxslarni, 2-bosqichda doimiy ravishda 12 viloyat va Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha ziyorat turizmiga talabi bo‘lgan aholi orasida targ‘ibot ishlarini olib borish. Har yili respublika bo‘yicha maktab bitiruvchilarini, oliy ta‘lim tashkilotlarida faoliyat ko‘rsatuvchi o‘qituvchi va tahsil olayotgan talabalarni, shifokorlar, nafaqaxo‘rlarni, 3-bosqichda turistik mahsulotni xalqaro musulmon sayyohlar bozorida targ‘ib qilish orqali xorijiy ziyoratchilarni jalb qilish, 4-bosqichda yo‘nalishni musulmon davlatlarning diniy siymolariga bog‘lab turistik marshrutlar tuzib, xorijliklar orasida targ‘ibot qilish belgilangan.

6-jadval

Taklif etilayotgan yo‘nalish bo‘yicha turistik paket xarajatlari hisob-kitobi²⁰

Yo‘nalish	Yo‘nalish bo‘yicha avtobus xarajatlari jami (million)	Temir yo‘l chiptasi narxi*	Mehmonxonada tunash*		Ovqatlanish*		Temir yo‘l va avtobusdan foydalangan holda jami xarajatlar	Faqat avtobusdan foydalangan holda jami xarajatlar
			Tunash muddati	Narxi	Soni	Narxi (ming)		
G‘arbiy yo‘l	6,0	195 330	2 kecha	311500	6	300	3 kun	
							866 830	731 500
Sharqiy yo‘l	11,0	172 200	5 kecha	778750	12	600	6 kun	
							1 710 950	1 598 250
Janubiy yo‘l	5,0	85 620	3 kecha	467250	8	400	4 kun	
							1 012 870	967 250
Markaziy yo‘l	8,0	147 110	5 kecha	778750	12	600	6 kun	
							1 665 860	1 538 750
Haq yo‘li	1,0	-	1 kecha	155750	3	150	2 kun	
							-	325 750

* Jadvalda barcha turdagi xarajatlarning o‘rtachasi 05.01.2025-yil holati ma‘lumotlari asosida tayyorlangan. 3 kishilik Triple xona narxi 1 kishiga 155750 so‘m, 1 mahal to‘liq ovqatlanish 50000 so‘m etib belgilangan.

** Keltirilgan narxlarga ziyorat obyektlariga kirish chiptasi, gid xizmati xarajatlari, turoperatorlik tashkiloti ustamasi va boshqa qo‘shimcha xizmatlar kiritilmagan.

*** Narxlar sayohatga kiritilgan xizmatlar, mehmonxona turiga, transportning qulayligiga, guruh hajmiga va boshqa omillarga qarab o‘zgarishi mumkin.

6-jadvalda taklif etilayotgan yo‘nalishlar bo‘yicha tuzilgan tur paket xarajatlari hisob-kitobi amalga oshirilgan. Unga ko‘ra, 50 kishilik guruh tarkibida ziyorat obyektlariga kirish chiptasi, gid xizmati xarajatlari, turoperatorlik tashkiloti ustamasi kiritilmagan, respublika bo‘ylab 3 kishilik xonada tunash o‘rtacha 155750 so‘m, 1 kishi uchun 1 mahal ovqatlanish o‘rtacha 50000 so‘m deb belgilangan taqdirda, bir kishi uchun “G‘arbiy yo‘l” orqali 3 kunlik sayohat - temir yo‘l va avtobusdan foydalangan holda jami 866830 so‘mni, faqatgina avtobusdan foydalangan holda esa jami 731500 so‘mni tashkil etishi belgilandi. “Sharqiy yo‘l”

²⁰ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

orqali avtobusda 6 kunlik ziyorat safari amalga oshirilsa kishi boshiga 1598250 so‘mdan to‘g‘ri keladi.

Yuqoridagi “Abu Hafs Kabir Buxoriy Yo‘li” doirasida ziyoratga qatnashuvchi maqsadli auditoriyani shakllantirish bosqichlarida keltirilgan raqamlarga tayangan holda turoperatorlik tashkilotining xizmatlardan potensial foydalanuvchilarning miqdori hamda respublika iqtisodiyotining multiplikator samarasiga qay darajada ta‘sir ko‘rsatishi hisoblangan (7-jadval).

7-jadval

2026-yilda “Abu Hafs Kabir Buxoriy Yo‘li” ziyorat turizm yo‘nalishiga jalb qilinadigan ziyoratchilarning ziyorat turizmidan olinadigan daromadga ta‘siri²¹

Maqsadli auditoriya	1%lik qamrov darajasi	Transport vositasidan foydalangan holda ziyorat qilinishidan olinadigan tushum, mln so‘m		Hudud iqtisodiyotiga umumiy ta‘sirining multiplikativ samarasi, mln so‘m	
	1 oyda (kishi)	Temir yo‘l va avtobus	Avtobus	Temir yo‘l	Avtobus
Imkoniyati cheklangan va nogironligi bor shaxslar	83	109	85	180	211
Maktab bitiruvchilari	322	423	332	698	548
Oliy ta‘lim tashkilotlarida faoliyat ko‘rsatuvchi o‘qituvchilar	44	57	45	94	74
Oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar	1096	1,440	1,131	2,376	1,866
Shifokorlar	88	115	90	189	148
Pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchi shaxslar	4023	5,286	4,152	8,721	6,850
Jami	5656	7,432	5,839	12,258	9,697

Natijalarga ko‘ra, agar 1 nafar ziyoratchi uchun temir yo‘l va avtobusdan foydalanib ziyoratni tashkil etish o‘rtacha 1314000 so‘m, avtobusdan foydalanib ziyorat qilishni o‘rtacha 1032300 so‘m deb belgilasak, unda 2026-yilda Respublika bo‘ylab shakllantiriladigan maqsadli auditoriyaning 1 foizini mazkur ziyorat turizm yo‘nalishiga jalb etgan holda 1 oyda ulardan jami 5,839-7,432 million so‘m atrofida bevosita daromad olish mumkin. Respublikaning 2026-yilda 1 oyda ziyorat turizmdan multiplikativ samarasi M_1 - 1,5 va daromad multiplikatori M_2 - 0,3 darajada hisoblanganda esa “Abu Hafs Kabir Buxoriy Yo‘li” ziyorat turizm

²¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

yoʻnalishiga jalb qilinadigan ziyoratchilarning hudud iqtisodiyotiga 1 oylik umumiy taʼsirining multiplikativ samarasi taqriban 9,697-12,258 million soʻmni tashkil etadi. Marshrut xarajatlariga turoperatorlik tashkilotining ustamasi, ziyoratgohlarga kirish chiptasi narxi, savdogarlarning daromadlarini ham qoʻshish evaziga iqtisodiy samaradorlik koʻrsatkichi yanada oshishiga olib keladi.

Shunday qilib, tadqiqotga koʻra, “Abu Hafs Kabir Buxoriy Yoʻli” ziyorat turizm marshruti loyihasining hayotga tadbiq etilishi natijasida quyidagi iqtisodiy-ijtimoiy oʻzgarishlar kuzatilib, amaliy natijalarga erishilishi asoslangan:

2026-yilda belgilangan 68 ta ziyorat obyektlariga 67794 nafar mahalliy, 3000000 nafar xorijlik, jami 3067794 nafar ziyoratchilar tashrifi amalga oshirilishi kutiladi, bu “Oʻzbekiston-2030 strategiyasi”da belgilangan “3 million ziyoratchiga yetkazish” maqsadiga uch baravar tezroq erishiladi degan natijani beradi;

mahalliy ziyoratchilarning tarixiy, islomiy bilimlari oshadi, diniy eʼtiqodi mustahkamlanadi, maʼnaviy qarashlari rivojlanadi;

mahalliy aholining sohada bandlik koʻrsatkichlari va daromadlari oshadi;

yaratiladigan shart-sharoitlar sabab turistlarning qulay va oson sayohat qilishi taʼminlanadi;

hududlarda turizm va unga yoʻldosh faoliyat bilan shugʻullanuvchi tadbirkorlar sonining oshishi natijasida iqtisodiy oʻsish taʼminlanadi;

halol turizm asosida shakllangan turizm infratuzilmasi rivojlantiriladi;

loyihaning iqtisodiy samaradorligi shunda koʻrinadiki, respublikaning 2026-yilda 1 oyda ziyorat turizmidan multiplikativ samarasi 9,697-12,258 million soʻmni tashkil etishi, hududlarning ziyorat turizmidan bevosita daromad esa 5,839-7,432 million soʻm atrofida boʻlishi prognoz qilinmoqda.

XULOSA

Hududlarda ziyorat turizmini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlari boʻyicha olib borilgan izlanishlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. “Oʻzbekiston - 2030 strategiyasi” doirasida qabul qilinayotgan ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish masalalariga doir qaror va farmonlarda belgilangan ustuvor vazifalar asosida tarmoqda muhim chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Mazkur tadqiqotda hududlarda islomiy ziyorat turizmini samarali tashkil etish, iqtisodiy samaradorlikka erishish yoʻllari asoslanib, mamlakatimizga ziyoratchilar oqimini oshirish imkoniyatlari dalillandi.

2. Buxoro viloyatida musulmon ziyorat turizmining ijtimoiy hodisa sifatida shakllanish bosqichlari aniqlanib davrlashtirildi. Bunga koʻra, 1-davr: VIII-IX asrlar - Buxoroning arablar tomonidan zabt etilishi, ilmni mustahkamlash maqsadida Buxoroga ziyorat qilinishi, Buxoro “Islom dini gumbazi” maqomini olishi; 2-davr: X-XII asrlar - Musulmon Renessansi, hududda yetuk olimlar yashab ijod qilganligi; 3-davr: XIII-XIV asrlar - Sayfiddin Boharziy tufayli Buxoro “Sharif” maqomiga erishganligi, ziyoratga oid ilk ilmiy manbalar topilganligi; 4-davr: XV-XVI asrlar - Buxoro “Ipak yoʻli durdonasi” deb atalgan; 5-davr: XVII-XVIII asrlar - Buxoroda madaniyat va ilm-fan rivojlanishi, Buxoroning qayta ziyorat markaziga aylanishi; 6-davr: XIX-XX asrlar – hududda maʼrifat va ilm-fanning oʻsishi,

iqtisodiy va siyosiy beqarorliklarning yuzaga kelishi; 7-davr: XXI asr - O'zbekistonda ziyorat turizmi asosiy strategik tarmoqqa aylanib bormoqda.

3. Islomiy ziyorat turizm atamasining adabiyotlarda mavjud bo'lgan insonlarning dini, e'tiqodi, motivatsiyasi, zamon va makon jabhalarini inobatga olib, motiv, maqsad, imon, muqaddas makon kabi ziyoratning asosiy omillar ko'ra, "Ziyorat turizm - bu musulmonlarning botiniy va zohiriy dunyosini poklash maqsadida dunyoviy hoju-havaslardan voz kechgan holda Alloh rizoligini istab muqaddas maskanlarni ziyorat qilishidir", deb ziyorat turizm ta'rifi takomillashtirildi.

4. Ekonometrik modellashtirish asosida Buxoro viloyatidagi ziyoratgohlarga tushadigan tushumga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlarning prognoz hisob-kitoblari asosida 2025-yildan 2029-yilgacha bo'lgan o'rta muddatli prognoz parametrlari ishlab chiqildi.

5. Indoneziya tajribasi asosida "JMSIning ACES 3.0" metodikasini hududning ziyorat turizm sharoitlariga mos keladigan rivojlantirish imkoniyatlarini baholash mezonlari, jumladan, destinatsiyaga yetib kelish osonligi, kommunikatsiya, turizmni qo'llab-quvvatlovchi atrof-muhit, xizmatlar ko'rsatkichlari andozasiga Muslim Travel Guide (musulmonlar uchun sayohat qo'llanmalari), mobil ilovalar, diqqatga sazovor joylar, hamda turistik tashriflarni mahalliy va xalqaro oqimga ajratish kabi kichik mezonlarini kiritish orqali "O'zbekistonning islomiy ziyorat turizm indeksi"ni baholash metodikasi ishlab chiqildi. Mazkur metodika asosida Buxoro viloyatining musulmonlarga do'stona turizm infratuzilmasining tayyorlik darajasi sohaning ekspertlari tomonidan baholash savolnomasi asosida o'rtacha 64,5 ball bilan baholanib, "tayyor" holatda ekanligi aniqlandi. Vaziyatni yanada yaxshilash uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

6. Hududlarda ziyorat turizmini rivojlantirish, sayyohlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va mahalliy iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash maqsadida Turizmni rivojlantirish qo'mitasi huzurida alohida Diniy va ziyorat turizmni boshqarish tashkilotini tashkil etish va Buxoro viloyatida islomiy ziyorat turizmni rivojlantirishning muqaddaslik xususiyatiga ega bo'lgan ziyoratgohlarni aniqlash; ziyorat muhitini shakllantirish; "Halol" standartlar asosidagi infratuzilmani yo'lga qo'yish; transport infratuzilmasini yaratish; ziyoratchilar statistikasini yuritish; yangi turistik marshrutlarni ishlab chiqish; marketing; mobil dasturlar yaratish kabi tashkiliy bosqichlarni yo'lga qo'yish ilmiy asoslab berildi.

7. Ziyorat turizmini samarali tashkil etish va rivojlantirishda muhim omil bo'lgan ishonchli statistika va ma'lumotlar yig'ish jarayoni "Shrine Pass" bilakuzuklari yordamida olib borilishi taklif qilindi. Bu tizim ziyoratchilarning maqsadlari, kelib chiqish joyi, yoshi va dini kabi ma'lumotlarini yig'ish, markazlashtirilgan tizimga yuborish imkonini beradi, shuningdek, ziyoratgohlarni boshqarish, xavfsizlik va resurslarni samarali taqsimlashga yordam berishi asoslandi.

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2022-2026-yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori doirasida uzoq muddatli strategik maqsadlarga erishish,

mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy farovonligiga erishish, mintaqaning sayyohlik salohiyatini yuksaltirish, turizm mavsumiyligini kamaytirish, Buxoro shahri ichida ziyorat kontekstida xalqaro va ichki ziyorat safarlarini rag‘batlantirish maqsadida 1 kunlik “7 Avliyoyi Shahri Sharif” ziyorat yo‘nalishi loyihasi ishlab chiqildi.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-135-sonli “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga asosan Kogon va Romitan tumanlari bo‘ylab turistik salohiyatni oshirish bo‘yicha yangi “Holy Bukhara Pilgrimage Ring” ziyorat turizm turistik marshruti ishlab chiqildi.

10. Iroqning yirik Arbain, Ispaniyaning Camino Santiago de Compostela ziyorat turizmi tajribasini qo‘llagan holda respublika bo‘ylab piyoda ziyorat safarlarini uyushtirishni qo‘llab-quvvatlovchi “Abu Hafs Kabir Buxoriy Yo‘li” nomli ziyorat turizm marshrutining konsepsiyasi va yo‘nalish xaritasi ishlab chiqildi.

11. “Abu Hafs Kabir Buxoriy Yo‘li” ziyorat yo‘lida safarlarni tashkil etish natijasida, 2026-yilda belgilangan 68 ta ziyorat obyektlariga 67794 nafar mahalliy, 3000000 nafar xorijlik, jami 3067794 nafar ziyoratchilar tashrifi amalga oshirilishi, o‘z navbatida “O‘zbekiston-2030 strategiyasi”da belgilangan “3 million ziyoratchiga yetkazish” maqsadiga uch baravar tezroq erishish imkoniyatini berishi asoslandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/27.09.2024.1.72.05
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

КУРБАНОВА МОХИНУР ХАБИБ КИЗИ

**ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ
ЗИЯРАТ ТУРИЗМА В РЕГИОНАХ
(на примере Бухарской области)**

08.00.17 – Туризм и гостиничная деятельность

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Бухара - 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована за номером B2024.2.PhD/Iqt4293 в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена в Бухарском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.buxdu.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: **Ибрагимов Нутфилло Салимович**
доктор экономических наук (DSc), профессор

Официальные оппоненты: **Кодиров Азизжон Анварович**
доктор экономических наук (DSc), доцент

Халилов Сирожиддин Шерали угли
доктор экономических наук (DSc), доцент

Ведущая организация: **Термезский государственный университет**

Защита диссертации состоится в _____ часов «__» _____ 2025 года на заседании Научного совета DSc.03/27.09.2024.I.72.05 по присуждению ученых степеней при Бухарском государственном университете. Адрес: 200117, г. Бухара, ул. М. Икбол, 11. Тел: (998 65) 221-26-92; (998 65) 221-27-07, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрирована за № ____). Адрес: 200117, г. Бухара, ул. М. Икбол, 11. Тел: (998 65) 221-25-87, e-mail: buxdu_arm@umail.uz

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2025 года.
(реестр протокола рассылки № __ от «__» _____ 2025 года)

О.Х.Хамидов
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

Д.Ш.Явмутов
Секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

Б.Н.Навруз-Зода
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире сфера паломнического туризма остается важным направлением в экономическом, культурном и социальном плане для многих стран и регионов. В 2023 году число мусульманских путешественников в мире достигло 145 миллионов, и в прогнозируемом периоде с 2024 по 2028 год ожидается, что их число достигнет 230 миллионов с ростом на 3-5% от международных поездок мусульман, а доход от сектора составит 225 миллиардов долларов США¹. В связи с этим организационно-экономические аспекты развития паломнического туризма в регионах на основе оценки возможностей, улучшения инфраструктуры, диверсификации туристических маршрутов приобретают важное значение.

В мире проводится ряд научных исследований по устойчивому развитию экономики регионов путем выявления особенностей и тенденций развития паломнических мест, особенно эффективного управления паломническим туризмом. В связи с этим приоритетное внимание уделяется созданию глобальной инфраструктуры паломнического туризма, повышению уровня готовности регионов к организации паломнического туризма, привлечению целевой аудитории паломников путем диверсификации направлений паломнического туризма, а также оценке перспективных показателей туристического потока в местах паломничества, проведению исследований, направленных на разработку эффективных организационно-экономических решений на основе выявления проблем, препятствующих развитию сферы.

В Новом Узбекистане резко возрос масштаб мер, направленных на развитие внутреннего и паломнического туризма. В частности, определены конкретные планы по увеличению числа паломников по святыням нашей страны, предложению новых туристических направлений для иностранных и местных туристов, продвижению паломнического туризма. Если в 2023 году святыне места Узбекистана посетили 1,5 миллиона паломников, то в стратегии «Узбекистан - 2030» поставлена задача «довести число туристов, приезжающих по паломническому туризму, до 3 миллионов человек»². Научные исследования по теоретико-методологическим и практическим предложениям, направленные на обеспечение устойчивого развития паломнического туризма в регионах нашей страны, оценку уровня внедрения услуг мусульманского паломнического туризма в регионе, выявление организационно-экономических проблем, выделяются своей актуальностью.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, обозначенных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-158 «О Стратегии «Узбекистан-2030»» от 11 сентября 2023 года, № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28

¹ Mastercard-CrescentRating. Global Muslim Travel Index. May. 2024

² Указ Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № УП-158 «О Стратегии «Узбекистан – 2030»»

января 2022 года, № УП-6165 «О мерах по дальнейшему развитию внутреннего и паломнического туризма в Республике Узбекистан» от 9 февраля 2021 года, Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-135 «О дополнительных мерах по ускоренному развитию туристского потенциала республики и дальнейшему увеличению количества местных и иностранных туристов» от 26 апреля 2023 года, № ПП-238 «О мерах по дальнейшему ускорению реформ в сфере туризма и эффективной организации системы государственного управления в сфере» от 27 июля 2023 года, № ПП-338 «О мерах по ускоренному развитию сотрудничества с тюркскими государствами в сфере туризма» от 29 июля 2022 года, № ПП-232 «О дополнительных мерах по диверсификации услуг внутреннего туризма» от 30 апреля 2022 года, № ПП-3514 «О мерах по обеспечению ускоренного развития внутреннего туризма» от 7 февраля 2018 года, Постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан № ПКМ-100 «О дополнительных мерах по развитию внутреннего и паломнического туризма» от 24 февраля 2021 года, № ПКМ-120 «Об эффективной организации работ по благоустройству на территориях кладбищ, мечетях, местей паломничества и священных местах» от 15 февраля 2018 года, а также в других нормативно-правовых документах, относящихся к данной сфере деятельности.

Соответствие диссертационного исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Степень изученности проблемы. Вопросы теории паломничества и туризма, религиозных мотивов, интересов, духовных или культурных потребностей, экономических основ зиярат туризма, развития паломнического туризма в регионах широко исследованы в научных работах таких зарубежных ученых, как M.M.Battour, R.Eid, H.El-Gohary, J.C.Henderson, J.Jafari и N.Scott, C.S.Abbate, R.Raj, I.Egresi, D.H.Olsen, K.Griffin, K.S.Taher, S.Bhardwaj, U.S.Mujtaba, M.F.Haq, Y.Bilim³.

